

**MAHSULOT TANNARXINI KAMAYTIRISHNING
ILMIY-USLUBIY ASOSLARI****Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna***Farg'ona davlat texnika universiteti*gaybullayevagulbahor1@gmail.com

Annotatsiya: Mahsulot tannarxini kamaytirish borasida olib borgan tahlillarim davomida ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan noto'g'ri foydalanish, energiya sarfining yuqoriligi va ortiqcha ishchi kuchi saqlanishi asosiy muammolar ekanligini ko'rdim. Ayniqsa, eskirgan texnologiyalar va hisob-kitoblarning yetarli darajada aniq olib borilmasligi mahsulot narxiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu sababli men xarajatlar tuzilmasini puxta o'rganib, tannarxni pasaytirish uchun ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, energiya tejamkor uskunalarga o'tish va xomashyo xaridida strategik hamkorlikni yo'lga qo'yishni taklif etaman. Bu yondashuv nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki mahsulot sifatini ham oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarish xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik, resurslardan samarali foydalanish, texnologik modernizatsiya, avtomatlashtirish,

Аннотация: В ходе анализа снижения себестоимости продукции я увидел, что основными проблемами являются нецелевое использование ресурсов, высокое энергопотребление и удержание избыточной рабочей силы в производственных процессах. В частности, устаревшие технологии и недостаточно точные расчеты напрямую влияют на себестоимость продукта. Поэтому я предлагаю внимательно изучить структуру себестоимости и в целях снижения себестоимости автоматизировать производство, перейти на энергоэффективное оборудование и наладить стратегическое сотрудничество в закупке сырья. Такой подход не только снижает себестоимость, но и повышает качество продукции. **Ключевые слова:** Себестоимость продукции, экономическая эффективность, эффективное использование ресурсов, технологическая модернизация, автоматизация,

Abstract: During my analysis of reducing the cost of production, I saw that the main problems are the misuse of resources, high energy consumption and the retention of excess labor in production processes. In particular, outdated technologies and insufficiently accurate calculations directly affect the cost of the product. Therefore, I propose to carefully study the cost structure and, in order to reduce costs, automate production, switch to energy-efficient equipment and establish strategic cooperation in the procurement of raw materials. This approach not only reduces costs, but also improves product quality.

Keywords: Production costs, economic efficiency, efficient use of resources, technological modernization, automation,

Kirish. Mahsulot tannarxi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Tannarx korxona foydasini hisoblashda asosiy ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda tannarxga

quyidagicha ta’rif berilgan. Mahsulot tannarxi — korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarning pul shaklidagi ifodasidir. Tovar ishlab chiqarishda tannarxning muhim elementlari — chetdan olinadigan xom ashyo, asosiy materiallar, elektr energiya resurslari chiqimlari, asosiy va qo’shimcha ish haqi, ijtimoiy sug’urta ajratmalari, amortizatsiya ajratmalari va boshqa sarf-xarajatlar. Tannarxga yuqorida sanab o’tilgan bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog’liq xarajatlardan tashqari noishlab chiqarish chiqimlari: idishlarga, mahsulotlarni o’rash-joylash va jo’natishga qilingan xarajatlar, mahsulotni sotish bilan bog’liq chiqimlar, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, reklama va boshqa ishlar uchun sarflanadigan xarajatlar ham kiradi. Narxlar o’zgarmagan hollarda mahsulot tannarxini kamaytirishga erishish korxona uchun qo’shimcha foyda manbaiga aylanadi. Qo’shimcha foyda esa mahsulotni sotishdan olingan tushumdan korxonaning mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflagan xarajatlari summasi ayirmasiga tengdir.²³

Mahsulot tannarxi eng muhim sifat ko’rsatkichlaridan biri bo’lib, umumlashgan shaklda korxonalar (firmalar, kompaniyalar) xo’jalik faoliyatining barcha tomonlarini, ularning yutuq va kamchiliklarini aks ettiradi. Tannarx darajasi mahsulot hajmi va sifati, ish vaqtidan foydalanish, xom ashyo, materiallar, jihozlar, ish haqi fondining sarflanishi va boshqalar bilan bog’liq. Xarajat, o’z navbatida, mahsulot narxini aniqlash uchun asosdir. Uni kamaytirish foyda miqdori va rentabellik darajasining oshishiga olib keladi. Xarajatlarni kamaytirishga erishish uchun uning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi omillarini o’rganish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To’qimachilik sanoati mahsulotlari tannarxini kamaytirish mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha taniqli olimlar va tadqiqotchilar mavjud. Jumladan, A.A.Xoitqulov Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot kafedrasining ilmiy izlanuvchisi bo’lib, u “To’qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun tashkilotchi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish” mavzuda tadqiqot olib borgan. Olim o’z ilmiy ishini to’qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratgan. Unda mahsulot tannarxini pasaytirish, samaradorlikni oshirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari ko’rib chiqilgan.

M.M.Muxtorov “To’qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati samaradorligi oshirish” mavzusida olib borgan ilmiy tadqiqot ishida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida, korxonalarda resurslari sarfining tahlili, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajasi hamda mehnat omillarining imkoniyatlari asosida o’rganilgan.

R.I.Isroilov va B.Y.Maxsudovlarning “Boshqaruv hisobi” nomli o’quv qo’llanmasida mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari, ularning turkumlanishi va tannarxni kalkulyatsiya

²³ Т.Б.Чернова. Экономическая статистика.учебное пособие. Таганрог:ТРТУ.1999

qilish usullari berilgan. Ilmiy ishida “Standart-kosting”, “Direkt-kosting” tizimi bo‘yicha boshqaruv hisobini tashkil etishning mohiyati va usullari organilgan.

A.S.Sotivoldiev, A.K.Ibragimov, A.Djumanov, B.A.Xasanovlarning maxsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining turkumlanishi va tannarxni kalkulyatsiya qilishga doir risolalarida "Direkt-kosting" tizimi haqidagi mavjud hisob amaliyoti ta'rif tartibida bayon etiladi. Prof. N.Toshmamatov, I.Nosirov maqolalarida esa bu tizimning «Direkt-kosting» va «Abzorpshen-kosting» usullarini O‘zbekiston amaliyotida bugundanoq qo‘llanish imkoniyati haqidagi masala ko‘ndalang qo‘yilgan. Shu munosabat bilan A.X.Pardaevning risolasi diqqatga sazovor. Unda "Direkt-kosting" tizimining mohiyati, uning aynan g‘arb mamlakatlarida paydo bo‘lganligi va rivojlanganligi, boshqaruv va ishlab chiqarish hisobi tizimlari va O‘zbekiston korxonalarida amaliy qo‘llanish imkoniyatlari bilan o‘zaro munosabatlariga bog‘liq masalalar tizimini bayon etishga birinchi marta jiddiy urinib ko‘rilgan.

Shuningdek, ko‘plab xorijiy olimlar A.I.Kuznisov, L.A.Kuzmina, S.B.Ponomarenko to‘qimachilik mahsulotlari tannarxini boshqarish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borgan.

Ular o‘z ilmiy izlanishlari xarajatlarni tahlil qilish va mahsulot tannarxini pasaytirish usullari batafsil yoritishda qaratilgan. L.A.Kuzmina to‘qimachilik mahsuloti tannarxni pasaytirish uchun texnologik jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqqan. S.B.Ponomarenko to‘qimachilik sanoatida strategik boshqaruv va tannarxni boshqarish masalalarida izlanishlar olib borgan. U mahsulot tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha samarali strategiyalarni o‘rgangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash maqsadi mamlakatning turistik salohiyatidan foydalanish masalalarini yoritish, ma‘lumotlarni topish, aniqlash va tahlil qilish davomida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, O‘zbekistonda turizm ob‘yektlarini rivojlantirish ko‘rsatkichlari statistik ma‘lumotlari asosida qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mamlakatimizda turizm imkoniyatlaridan foydalanish masalalari o‘ranilgan va muhokama qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

To‘qimachilik mahsulotining tannarxini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va zaruriyati quyidagicha bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin:

Mahsulot tannarxini kamaytirish, korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi. Kamroq xarajatlar, mahsulotni pastroq narxda taklif qilish imkonini beradi, bu esa kompaniyaning bozor ulushini oshirishga yordam beradi. Agar mahsulot tannarxi kamaytirilsa, daromad olish imkoniyati oshadi, chunki xarajatlar kamayishi bilan foyda ko‘payadi. Bu, ayniqsa, yuqori ishlab chiqarish hajmlarida kompaniyaga qo‘shimcha foyda keltiradi. Mahsulot tannarxini kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonida resurslardan samarali foydalanish zarur. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va

energiya sarfini pasaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Kam tannarxli mahsulotlar ishlab chiqarish, kompaniyaga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi, chunki investorlar ko'pincha past tannarxli va yuqori foyda keltiradigan loyihalarga qiziqish bildiradilar. Umuman olganda, mahsulot tannarxini kamaytirish, xarajatlarni nazorat qilishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, kompaniyaga barqaror moliyaviy holatni saqlashga yordam beradi, ayniqsa iqtisodiy inqirozlar yoki bozorning o'zgaruvchan sharoitlarida. Tannarx kamaytirish, kompaniyalar resurslarni boshqa sohalarga, masalan, sifatni yaxshilashga yo'naltirishlari mumkin. Bu esa uzoq muddatda kompaniyaning brendini yaxshilashga olib keladi.

Natijada, tannarxni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash va innovatsiyalarni joriy etish zarur. Bu kompaniyalarga yangi texnologiyalar va metodlarni qo'llashga undaydi, bu esa umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda kam tannarxli mahsulotlar bozorning o'zgaruvchan talabiga tez moslashish imkonini beradi. Kompaniya tezda yangi sharoitlarga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqishi va bozorga chiqarishi mumkin bo'lib hisoblanadi.

XULOSA:

Mahsulot tannarxini kamaytirish nafaqat kompaniya uchun foyda keltiradi, balki iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kam tannarxli mahsulotlar bozorni kengaytiradi, raqobatni kuchaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.X.Abdullaeva, G.M.Davlyatova, (2022). To'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini innovatsion rivojlantirish masalalari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (6-8), 7-21.
2. X.Abdushukurov, U.Eshmuradov. "Xarajat" va "Tannarx" kategoriyalarining nazariy jihatlar. Yashil iqtisodiyot. 2024-yil. Maxsus son
3. G, Gulbahor. "To'qimachilik sanoatida mahsulot tannarxini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va zaruriyati." Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 1 (№1), 429-431 bet
4. Гайбуллаева, Г. М. "КИШЛОК ХЎЖАЛИГИНИ СТРАТЕГИК БОШКАРИШ МЕХАНИЗМИ." Страницы: 136-142
5. Safarova, D. E. Gaybullayeva, G. M. "To'qimachilik korxonalari faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy resurslardan foydalanish yo'llari." Scientific progress 2 (2), 1295-1300
6. Gaybullayeva, G. M. " QISHLOQ XO'JALIGINI STRATEGIK BOSHQARISH MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH GAROVI." NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI 1 (Maxsus son), 118-124